

**JADID ENLIGHTENMENT "JADID WAYS" SCHOOLS AND PUBLIC EDUCATION***Shokhsanam Mirzaakhmedova**Master's student**National University of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Method Jadid, First Master, Fergana, Ishaq Khan Ibrat.**Received:** 13.06.22**Accepted:** 15.06.22**Published:** 17.06.22**Abstract:** Jadidism, which emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, was a cultural, educational, national, and socio-political movement. It grew up and became the ideology of the rising national liberation movement against the colonialists. This article provides a source-based analysis of the work of Jadid educators in Jadid schools and education.**JADID MA'RIFATPARVARLARINING "USULI JADID" MAKTABLARI VA XALQ MAORIFI MASALALARI***Shoxsanam Mirzaaxmedova**Magistratura talabasi**O'zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** usuli jadid, Ustodi avval, Farg'ona, Is'hoqxon Ibrat.**Annotatsiya:** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda maydonga kelgan jadidchilik madaniy-ma'rifiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy harakat edi. U o'sib mustamlakachilarga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik harakatining mafkurasiga aylandi. Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlarining usuli jadid maktablari hamda maorif sohasida amalga oshirgan ishlari manbalar asosida tahlil yoritiladi.**ШКОЛЫ ПРОСВЕЩЕНИЯ ДЖАДИДОВ И НАРОДНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ "ПУТИ ДЖАДИДОВ"***Шохсанам Мирзаахмедова**студент магистратуры**Национальный университет Узбекистана*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: усул джадид, устади аввал, фергана, ишахон ибрат.

Аннотация: Джадидизм, возникший в Туркестане в конце 19 — начале 20 вв., был культурно-просветительским, национальным и общественно-политическим течением. Оно выросло и стало идеологией поднимавшегося национально-освободительного движения против колонизаторов. В данной статье представлен анализ источников работы джадидских педагогов в джадидских школах и образовании.

KIRISH

XX asr boshlari o'zbek xalqi hayotida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Jadidchilik harakati vakillari asoratga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifat ekanligini to'liq anglab yetdilar, maorif va ta'lim-tarbiyani tubdan o'zgartirish, yangi maktab tuzish masalalarini asosiy o'ringa ko'tardilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hoji Mu'in kabi dovyurak ajdodlarimiz milliy g'oyani barqaror kuchga aylantirishda keskin harakat qildilar, kurashdilar. Ularning g'oyalari xalqimizni ma'rifatli qilish, o'zligini anglashga tayyorlash va shu yo'l bilan milliy ozodlikka erishishni ta'minlashdan iborat edi.

ASOSIY QISM

Toshkentning Shayxovand Tahir, keyinchalik shaharning boshqa turli dahalarida birinchi "usuli jadid" maktablari ochildi. Munavvar qori Abdurashidxonov bunday maktablarning kundalik o'quv-tarbiya ishlaridan tortib, yillik bitirish imtihonlarini uyushtirishgacha, "usuli savtiya" metodini iqtidorli yosh o'qituvchilarga o'rgatishdan tortib, maktablarni zamonaviy darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashgacha va yangi darsliklar yaratishgacha bo'lgan uzluksiz jarayonni boshqardi.

Munavvar qori Toshkentda ochgan usuli savtiya maktablarida o'zi tuzgan o'quv dasturlari asosida jamoat oldida ochiq imtihonlar tashkil qilgan. Imtihonlarga o'quvchilarning ota-onalaridan tortib, shariat-din peshvolarigacha, hatto o'lkada katta e'tibor qozongan olim-u shoirlarni, ma'rifatli boylarni ham taklif qilgan. Mana, uning Namanganga — Is'hoqxon to'ra Ibratga yo'llagan "Da'vatnoma"si:

"Hurmatlu Ishoqxon hoji janoblarina!

1907 yil may oyidan e'tiboran Toshkentda Tarnov boshi mahallasida "Xoniya" maktabinda talabalarni yillik imtihoni boshlanur. Siz hurmatludan rijo qilurmizki, tavobingizda bo'lgon usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtihon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mamnun bo'lur edilar.

Muhibingiz Munavvar qori, 15 mart 1907 yil".

Bunday imtihonlar “usuli jadid” maktablarining oʻlka boʻylab keng tarqalishiga olib keldi. Ayniqsa, 1899- 1903 yillarda Namanganda Is’hoqxon Ibrat, Soʻfizoda, Qoʻqonda Domla Salohiddin, Abdulvahob Ibodiy, Ashurali Zohiriy, Hamza, Andijonda Shamsiddin domlalar boshchiligida usuli jadid maktablari tarmoqlari kengayib bordi.

Millat maʼrifatini oshirish” zulm va qorongʻulikdan qutulishning yoʻli ekanligini chuqur his etgan Hoji Muʼin 1903 yilda Samarqandning Xoʻja Nisbatdor mahallasida yangi usuldagi maktab ochadi, yangi usul maktablariga darslik va qoʻllanmalar tuzadi, uning sheʼr va sahna asarlari (“Toʻy”, “Mazluma xotin”) millatni illatga botirayotgan mavzularda boʻlib, millatga saboq maqsad muddaolarida bitilgan edi.

Fargʻona viloyati oʻquv yurtlariga inspektorining 1910 yilda tuzgan, arxivda saqlangan yangi usul maktablari roʻyxatiga binoan Qoʻqon uyezdida-14 ta, Andijon uyezdida — 5 ta, Namangan uyezdida- 4 ta jadid maktabi boʻlgan. Qoʻqondagi yangi usul maktablardan 4 tasi 1893-1900-yillarda vujudga kelgan. Qoʻqondagi birinchi jadid maktabi 1893 yilda Mirayubboy mahallasida tashkil qilingan. Bu shahardagi eng yirik jadid maktablaridan biri boʻlgan. Undagi 100 oʻquvchiga oʻqituvchi Ahmadjon qori va uchta yordamchisi taʼlim bergan. 1899 yilda Xolibobo mahallasida masjid qoshida yangi usul maktabi ochilgan. Unda 25 oʻquvchi oʻqigan, keyin oʻzbek Xoʻjaxon Axmadxoʻja oʻqituvchilik qilgan Bandul mahallasida 1899 yilda ochilgan yangi usul maktabda 115 oʻquvchi oʻqigan va Muhammadxon Muhammadov dars bergan. Besh Qovoq mahallasi masjidi qoshida 1900 yilda ochilgan yangi usul maktabida 115 oʻquvchi boʻlib tatar Salohiddin Mezitov taʼlim bergan. Bulardan tashqari Qoʻqonning Daxmai Shohon mahallasida 1901 yilda, Gʻalchasoy mahallasida 1902 yilda, Bekbachcha mahallasida 1904 yilda va boshqa yangi usul maktablari faoliyat koʻrsata boshlagan.

Yangi “usuli jadid” maktablari soni mahalliy maktabdorlar, xur fikrli ziyolilar saʼy-harakati hisobiga ancha ortdi. Bu hol mustamlakachilarni ancha tashvishga soldi. Fargʻona viloyati xalq oʻquv yurtlari inspektori (nazoratchisi) O. Egorov 1909 yilda Turkiston oʻlkasidagi rus-tuzem maktablarining ahvoliga bagʻishlangan maxsus kengashda kuyunib shunday degan edi: “Yaqin kelajakda yangi metoddagi mahalliy maktablarning keng yoyilishi va ularga nisbatan mahalliy aholi eʼtiborining keskin ortib borishi bilan rus-tuzem maktablari batamom xarob boʻladi”.

“Usuli jadid” maktablarini butunlay yopib qoʻyish yoki taqiqlashdan gubernatorlik maʼmuriyati qoʻrqar edi, chunki bu ish bunday maktablarni yashirin ravishda tashkil qilishga, ayniqsa, mahalliy xalqning qattiq norozilik harakatiga olib kelar, koʻplab yoshlarning chet elga, birinchi navbatda, Turkiyaga borib oʻqishiga yoʻl ochilar edi.

Mahalliy pedagoglarning “usuli savtiya” maktablarini ochishi chor maʼmuriyati tomonidan qattiq nazorat ostiga olindi. Shu munosabat bilan 1909 yilda Turkiston okrugi qoshida maxsus komissiya tomonidan maxsus “Farmoyish” ishlab chiqildi. “Farmoyish” shunday masalalarni oʻz ichiga olgan edi:

Mahalliy maktablar chor ma'muriyatining maxsus ruxsatnomasi bilan ochiladi.

Mahalliy maktablarni ochish va unda o'qitish siyosiy jihatdan to'la ishonchli bo'lgan Rossiya fuqarolarigagina ruxsat etiladi. Mahalliy maktab qaysi millat bolalari uchun ochiladigan bo'lsa, uning o'qituvchilari ham o'sha millatga mansub bo'lishi shart.

Mahalliy maktablarda faqat Rossiya senzurasini ruxsati bilan chop etilgan kitoblarga o'qitiladi.

Ma'muriy politsiya idoralarida ishlovchi mas'ul shaxslar zimmasiga barcha mahalliy musulmon maktablarini aniq ro'yxatga olib borish va ro'yxatdan o'tmagan maktab larning faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik vazifasi yuklatiladi. Maxsus ruxsatsiz maktab ochgan shaxslar maktab ochish va o'qituvchilik ishidan abadiy mahrum etiladi. Mahalliy maktablardagi o'qitish ishlari va ularda joriy etilgan tartib-qoidalarga rioya etilishi ustidan nazorat qilib turish mahalliy ma'murlarga hamda maktab nozirlariga yuklatiladi.

Farmoyishning hamma moddasi mahalliy millat farzandlari uchun ochiladigan maktablarga bir katta to'siq vazifasini bajaradi. Uchinchi moddadagi ta'kidga ko'ra o'quvchilar qaysi millatga mansub bo'lsa, maktab ochuvchi muallim ham o'sha millatga mansub bo'lishi kerak. Bu bilan ichki Rossiyadan kelgan tatarlar tomonidan ochilgan va ochilayotgan "usuli jadid" maktablarining faoliyati to'xtatildi.

"Usuli jadid" maktablarida qo'llash uchun mahalliy mualliflarning darsliklari hali yo'q darajada yoki yetarli emas edi. Atoqli maorifchi, Turkiston o'lkasidagi o'quv-tarbiya ishlariga isloh kiritgan ilg'or ziyoli Saidrasul Saidazizovning qiroat usuli qo'llanilgan "Ustodi avval" alifbo darsligi nihoyatda kam miqdorda nashr qilinib, hatto rus-tuzem maktablari uchun ham yetishmas edi. "Usuli jadid" maktablarida Majid Qodiriy tomonidan yaratilgan va 1910 yilda nashr etilgan "Hisob" darsligiga qadar Qozonda, Turkiyada nashr qilingan matematika bo'yicha turli darsliklardan foydalanilar edi.

1907-1910 yillarda Qo'qon, Andijon va Samarqandda yangi maktablar ochila boshladi. Masalan, Andijonning Jalaquduq qishlog'ida mulla Toirjon mulla Xo'jayev hamda mahalliy o'qituvchilar 31 nafar o'quvchi bilan Xartum qishlog'ida 50 nafar o'quvchi bilan, so'ng Darxonda 55 nafar o'quvchi bilan "usuli savtiya" maktablarida o'qitishni boshlab yubordilar.

O'qituvchi inson farzandini haqiqiy kamolot sari yetaklaydi. Har qanday jamiyatning inqiroziyu tanazzuli, ravnaqi-yu istiqboli uning maktabga, ta'lim-tarbiyaga va ayniqsa, o'qituvchiga bo'lgan munosabati bilan o'lchanadi. "Usuli jadid" nomini olgan "usuli savtiya" (tovush metodi) ga asoslangan maktablarda milliy ma'naviyati yuksak, millat, Vatan istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish birinchi o'rinda turgan. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda o'z ona tilida ta'lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini asoslarini o'qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o'zligini saqlovchi asosiy vosita ona tili va milliy adabiyot deb bildilar. Milliylik masalasi Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Jadid mutafakkirlari faoliyati zamirida mustamlakachilikka qarshi maqsadlar, milliy istiqlol g'oyasi yotar ediki, bu g'oya oq va qizil imperiyaga birday ma'qul emas edi. Sho'rolar hukumati ularga qarshi nihoyatda dahshatli ham jisman, ham ma'nau yo'q qilish siyosatini olib bordi va yigirma yil ichida ularning deyarli hammasi qatag'on qurboni bo'ldilar.

Bugungi kunda jadidlar orzu qilgan ozod mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Haqiqatda, milliy g'oya, millat tafakkurining eng ilg'or namunalari aks ettirgan darslik va qo'llanmalar tuzish, xorijiy tillarni mukammal bilish, kasb-hunar o'rgatishni joriy etish kabi tamoyillar o'z davrida jadidchilik vakillarini o'ylantirgan va ularning bu yo'ldagi bevosita sa'y-harakatlari faoliyatimizning zamonaviy intellektual taraqqiyoti poydevoriga zamin yaratishga xizmat qildi.

O'zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida mashhur bo'lib, bunda kutubxonalar katta rol o'ynagan. Ayniqsa, IX-XII asrlarda, Amir Temur va Temuriylar davrida mamlakatda ulkan kutubxonalar tashkil etildi, ilm-fan yuksaldi. Keyingi asrlar, xususan, xonliklar davrida ham mintaqadagi yirik shaharlar, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon shaharlarida hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar faoliyat yuritgan.

Sadri Ziyoy ma'lumotlariga qaraganda XX asrning boshida birgina Buxoro shahrida 13 ta kutubxona, 96 ta qiroatxona bor edi. Buxoro shahridagi hukmdor saroyidagi kutubxonada xitoy, uyg'ur, pushtu, fors, arab va boshqa tillardagi qo'lyozmalar saqlangan. Kutubxonada kitobdor, mushrif, risolachi va mirzolar xizmat qilganlar. Saroy kutubxonasida amirlarning shaxsiy kolleksiyalari bilan birga 47.500 jild turli tillardagi qo'lyozma va toshbosma kitoblar saqlangan. 1915 yili professor A.A. Semenov amirlik kutubxonasi bilan tanishib chiqib, uni tartibga keltirish va qisman tavsif qilishga erishadi. A.A. Semenov amirning kutubxonasi miniatyurali qo'lyozmalar bilan to'la ekanligini qayd etgan edi.

“Millatning taraqqiyosi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko'rub, muhofaza qilmoqchi bo'lsak, avval saodat eshigi bo'lgan maktabimizni zamonga muvofiq isloh qilish kerak”, — deb yozgan edi turkistonlik jadidlardan biri Hoji Mu'in Shukrullo. Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jadid matbuotining keng va qamrovli munozaralariga sabab bo'ldi. Turkiston maktablari qanday bo'lishi kerak, ular qaysi yo'nalishda rivojlanishi zarur, kabi muammolar o'z davri mualliflarining diqqat markazida bo'ldi. Munavvar qori Abdurashidxonov asrlar davomida hukm surib kelgan maktab va madrasalardagi o'qitish tizimini isloh etishni ilgari suradi. Maktablarda hali asl mazmuni va ma'nosini tushunishdan yiroq bolalarga Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedilning muhabbat haqidagi she'rlari o'qitiladi va uningcha: “bir bolaga Fuzuliy o'rniga ilmi qiroat, Navoiy o'rniga masoili e'tiqodiy, Xo'ja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badalig'a ilmi hisob o'qitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon o'lur”. Balog'atga yetmagan bolalar ulardagi falsafiy ma'noni uqmagani, hatto ularni o'qiyotgan domlasi ham

tushunmagan holda “johil domlalarini ta’limi falonni qoshi qora, ko’zi qora, yuzi oq, so’zi shirin, deb bolalarni fasod axloqig’a birinchi sabab o’ladurg’on” asarlarga aylanayotganligini ta’kidlagan muallif, bularningo’rniga matematika, geografiya, islom tarixi kabi dunyoviy ham diniy ilmlarni o’qitish foydali, degan fikrda edi. “Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyning yo’li” maqolasining muallifi Niyoziy Rajabzoda o’lkadagi boshlang’ich maktablarning zamon talabiga javob bera olmayotganligini dalillar bilan keltiradi: “... xoh Buxoro, Samarqand, Toshkand, xullas, umum Turkiston shaharlarinda bo’lgan musulmon qarindoshlarimiz insof ila fikr qilsalar, maktablarimizni ko’p parishon va beintizom holatda ko’rarlar. Muddati tahsil ko’p uzoq bo’lganligi uchun ko’p kishilar bolalarini 8-10 yil maktabga qo’yolmaydurlar. Chunki qudrati iste’dodlari yetmaydir. Shuninguchun maktabda yurgan bolalarimizdan 10 yo 8 nafardan 2 yo 3 nafar ahli savod bo’lub chiqadurlar”. Uning fikricha, diniy bilimlarni chuqur o’rganish zarur, lekin “hunarlik va boy bo’lmoq uchun albatta ilmu ma’rifat lozimdur.

XULOSA

“Oyina” jurnali o’zining 1914 yil 27-sonida hukumat statistik ma’lumotlari asosida Samarqand viloyati shaharlari bo’yicha aholi, madrasa, maktab va talabalar soni keltirilgan jadvalni chop etadi. Ma’lum bo’ladiki, mahalliy aholining har yuzdan uch nafari, rus millatining har yuzdan 16 nafari o’qishga jalb etilgan. Ushbu vaziyatni muallif “hazrati Payg’ambarimizning “Ilm Xitoyda bo’lsa-da talab qilingiz”, “Talabi ilm har musulmon er va xotung’a farz dur”, “Ilmni beshikdan qabrg’acha talab qilingiz” degan amri shariflarig’a bo’yin qo’ymaganimiz ma’lum bo’lur. Va bul o’qumaslikning oxiri dunyo oxiri va oxiratda rasvolik bo’lur”, deb baholaydi. “Agarda har millatning istiqbolini bilmak xohlansa ul millatni bolalarig’a nazar va... alarning sihatlariga va husni tarbiya va ta’limlarig’a” katta e’tibor zarurligi Abdusalom Azimiyning “Ta’lim va tarbiya” maqolasining bosh mavzusi bo’ldi. Uning “bolag’a ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta’siri bolag’a, otani ta’siridan ziyodadir” fikri hamma davr uchun birdek katta ahamiyatga ega. Zotan, “Agarda onalar johila bo’lmay, balki oqila, muhazzaba, mutaallama va odobi sahihalarga dono bo’lsalar va bolani o’z tarbiyasiga muvofiq bo’luvini tushunsa, hifzi sihat va odobga rioya etsa va nobajo bo’lunmog’idan to’xtatsa va odibi islomiya va axloqi marziya birla tarbiyat etsa, albatta, ul bolani oqil va halim bo’lmog’iga shak va shubha yo’qdur”. Darhaqiqat, xotin-qizlarning o’qimishli, ilmli, madaniyatli, o’z jamiyati uchun zarur va foydali insonlar bo’lib yetishishlari kabi masalalar milliy matbuotning dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Bu mavzuda ko’plab maqolalar, she’rlar, badiiy asarlar chop etib borildi. So’fizodaning “O’qunglar onalar”, Tavalloning “Hamshiralalar tilindan”240 she’rlarida Turkiston xotinlarining “mute’ joriyalar”ga aylanib qolganligi, ularning ma’rifatli bo’lishiga qarshilik ko’rsatayotgan “chalasavodlar”ga qarshi chiqiladi va ularning xulosasi ma’rifatni keng joriy etish zarurligi bilan yakun topadi. “Biz bechoralarni shu xollarga (jaholat nazarda tutilgan — N.M.) qolg’onimizga birinchi sabab ilmsizligimiz, dunyodin xabarsizligimizdur. Ey otalar ushbu holimizni ko’z oldig’a kelturub bizlarni

oqarturug‘a, ilm-maorif nuridin bahravor qilurga harakat qilingiz ... Ma’suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg‘a oshiqingiz”, deydi “Toshkandlik bir muallima” imzosi bilan yozgan “Na uchun ibrat olmaymiz” maqolasi muallifi. Qizlarga turli ziynatlar emas, aksincha ilm, hunar kerakligi, o‘g‘il bolalarga nisbatan qiz bolalarga ilm, hunar ko‘proq zarurdir, degan fikrlar bu maqolaning bosh mazmuniga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Афандизода. Мунаввар кори. Ёш Туркистон, 1934, № 50, январь. Қисқача маълумот: 1929-1939 йилларда Париж шаҳрида ўзбек тилида мунтазам чиқиб турган. 1934 йил давомида журнал Мунаввар кори Абдурашидхон ўғли хотирасига бағишлаб туркум маколалар, хотиралар эълон қилган; Яна қаранг: Тарихнинг номаълум саҳифалари. Хужжат ва материаллар. Биринчи китоб. — Т.: Гафур Гулом. 2004 — Б. 8-15.
2. Казаков Т.К. Общественно-политическое положение в Ферганской долине и джадидское движение в начале XX века. Автореферат дисс. на соиск. уч. ст. канд. исторических наук. Ташкент 2000, — Б. 17.
3. ЎЗР МА. И-47- фонд, 1-рўйхат, 797 иш, 75-в.
4. ЎЗР МА. И-47- фонд, 1 — рўйхат, 926 мш, 109-б.
5. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Учинчи китоб. Т.: ОғЪеУйоп — Б. 113-114
6. Ешларға мурожаат// Самарқанд. 1913 йил 9 август
7. Абдурашидхонов М. Бизни жаҳолат — жаҳли мураккаб // Абдурашидхонов М. Танланган асарлар Тошкент, 2003.143-144-бетлар.
8. Ражабзода Ниёзий.Ибтидоий мактабларимизнинг тартибсизлиги ёхуд тараққийнинг йўли // Ойна (1914-1915Й.). Тошкент, 2001.5-бет.
9. Зимий Абдусалом. Таълим ва тарбия//Ойна. 1915 йил 5 февраль.
10. Садои Туркистон. 1914 йил 17 май
11. Тошкандлик бир муаллима. На учун ибрат олмаймиз // Садои Туркистон. 1914 йил 20 май.